

**O‘ZBEK TILI, ADABIYOTI VA FOLKLORI INSTITUTI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.02/30.12.2019.FIL.46.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI

SHARIPOVA MAXBUBA BAXSHILLOYEVNA

“ALPOMISH” DOSTONIDA MAROSIMLARNING BADIY IFODASI

10.00.08 – Folklorshunoslik

**Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Toshkent – 2023

UO‘K: 821.512.133-131Алпомиш:39(=512.133)

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi
Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)
Contents of dissertation abstract of the Doctor of Philosophy (PhD)

Sharipova Maxbuba Baxshilloevna

“Alpomish” dostonida marosimlarning badiiy ifodasi..... 3

Шарипова Махбуба Бахшиллаевна

Художественное выражение обрядов в эпосе “Алпамыш”.. 25

Sharipova Makhbuba Bakhshilloevna

Artistic expression of rituals in the epic “Alpamis”.....49

E‘lon qilingan ishlar ro‘uxati

Список опубликованных работ

List of published works 53

**O‘ZBEK TILI, ADABIYOTI VA FOLKLORI INSTITUTI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.02/30.12.2019.FIL.46.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI

SHARIPOVA MAXBUBA BAXSHILLOYEVNA

“ALPOMISH” DOSTONIDA MAROSIMLARNING BADIY IFODASI

10.00.08 – Folklorshunoslik

**Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Toshkent – 2023

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi Oliy attestatsiya komissiyasida B2020.1.PhD/Fil 1193 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Buxoro davlat universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume) Ilmiy kengash veb-sahifasida (www.tai.uz) va "ZiyoNET" Axborot ta'lim portalida (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar: O'rayeva Darmon Saidaxmedovna
filologiya fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar: Jumanazarov Umurzak Abdurazzakovich
filologiya fanlari doktori, professor


Yormatov Isomiddin Turg'unovich
filologiya fanlari doktori, professor

Yetakchi muassasa: Qarshi davlat universiteti


Dissertatsiya himoyasi O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi O'zbek tili, adabiyoti va folklori instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.02/30.12.2019.Fil.46.02 raqamli Ilmiy kengashning 2023-yil «18» oktabr kuni soat/6⁰⁰ dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 100060, Toshkent, Shahrizabz tor ko'chasi, 5-uy. Tel: (99871) 233-36-50; faks: (99871) 233-71-44; e-mail: uztafi@academy.uz).

Dissertatsiya bilan O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasining Asosiy kutubxonasida tanishish mumkin (46 raqami bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 100100, Toshkent shahri, Ziyolilar ko'chasi, 13. Tel.: (99871) 262-74-58.


Dissertatsiya avtoreferati 2023-yil «6» oktabr kuni tarqatildi.
(2023-yil «6» oktabr dagi 94 -raqamli reestr bayonnomasi).



J.S. Eshonqulov
Ilmiy darajalar beruvchi
Ilmiy kengash raisi, filol. f.d., prof.



B.T. Mirzayeva
Ilmiy darajalar beruvchi
Ilmiy kengash ilmiy kotibi, filol. f.f.d. (PhD)



Sh.G. Turdimov
Ilmiy darajalar beruvchi
Ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi,
filol. f.d., prof.



KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zaruriyati. Jahon eposshunosligida har bir xalqning qahramonlik dostonlarida uning madaniy hayot tarzi, o'ziga xos urf-odatlar, ruhiyati aks ettirilishi jihatidan dunyo sivilizatsiyasida tutgan o'rnini belgilab ko'rsatishga hamisha katta e'tibor qaratib kelingan. YUNESKO e'tirofiga sazovor bo'lgan va dunyo miqyosida ming yilligikeng nishonlangan "Alpomish" dostoni ham bundan mustasno emas. Unda ifoda topgan umuminsoniy g'oyalar, an'anaviy motivlar, arxaik sujet, oilaviy-maishiy marosimlarning badiiy talqin xususiyatlarini aniqlash insoniyat badiiy tafakkuri tadriji, eposning marosim, etnos, baxshi mahorati bilan bog'liqligini asoslashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Jahon eposshunosligida dostonning folklor janrlari tizimida tutgan o'rni, tarqalish areali, taraqqiyot qonuniyatlari, epik sujeti, arxaik va an'anaviy motivlari, obrazlar tarkibi, badiiy qurilishi, ifoda uslubi, tili masalalari tadqiqi har doim ustuvor vazifalardan biri bo'lib kelgan. Epos va marosim, epos va etnos masalasi ham shunday dolzarb ilmiy muammolardan biridir. Ularning alpomishshunoslikda doston variantlari asosida o'rganilishi, unda oilaviy-maishiy marosimlar hamda milliy urf-odatlarining poetik talqin xususiyatlarini ritual-mifologik, tarixiy-jug'rofiy, antropologik, qiyosiy etnografik, etnofolkloristik usullar, sayyor sjetlar nazariyasi vositasida ochish epos nazariyasini boyitishga xizmat qila olishi jihatidan muhim hisoblanadi.

O'zbek xalqi dostonchilik, baxshichilik san'ati bo'yicha boy va qadimiy epik an'analarga ega. "Bizning havas qilsa arziydigan buyuk tariximiz bor. Havas qilsa arziydigan ulug' ajdodlarimiz bor. Havas qilsa arziydigan beqiyos boyliklarimiz bor".¹ Shu beqiyos boyliklarimizdan biri "Alpomish" dostonidir. Unda milliy qadriyatlarimiz sanalmish qadimiy marosimlarimizning badiiy ifodasi o'z tajassumini topganki, dostonning turli variantlarini qiyosiy-tipologik aspektda o'rganish asosida ularda milliy marosim, urf-odatlarining epik motivlashtirilish bilan bog'liq badiiy qonuniyatlarni baxshilar mahoratini kuzatish orqali aniqlash dolzarb va zarur vazifadir.

Dostonchilik noyob san'at turi sifatida ijodkor-baxshilar tomonidan ustozshogird an'anasi doirasida saqlab kelmoqda. Respublikamiz hududida shakllangan va hozirgacha davom etib kelayotgan dostonchilik maktablari say'-harakati bilan katta miqdordagi dostonlarimiz ma'naviy meros sifatida yetkazib berilgan. Ming-yillar davomida yaratilib, sayqal topib, avloddan-avlodga o'tib kelayotgan bu betakror ma'naviy merosimiz durdonalarida xalqimizning o'ziga xos dunyoqarashi, azaliy e'tiqodiy tushunchalari, keng tafakkur tarzi, hayotga bo'lgan estetik munosabati, orzu-intilishlari, istak-umidlari, urf-odatlarini talqini betakror badiiy ifodasini topganligi bilan alohida e'tiborni tortadi. Qahramonlik, vatanparvarlik, odamiylik, o'zaro mehr-oqibat, do'stlik va hamjihatlik, oila sha'nini himoyalash kabi muhim insoniy g'oyalar tarannumiga bag'ishlangan

¹ Адабиёт ва санъат, маданиятни ривожлантириш – халқимиз маънавий оламини юксалтиришнинг мустақкам пойдеворидир. Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш.Мирзиёевнинг Ўзбекистон ижодкор зиёлилари вакиллари билан учрашувдаги маърузаси // Халқ сўзи, 2017, 4 август. – №153 (6347).

“Alpomish” dostoni epik merosga ega barcha xalqlarning badiiy tafakkuri tadrijini tadqiq etish va nazariy xulosalar chiqarishda asosiy ob’ekt bo’la oladi. Chunki uning sujeti va obrazlar tarkibida qadimgi yunon eposi “Odissey”, koreys dostoni “Jumong” bilan o’xshashliklar borligi aniqlangan. Doston butun turkiy xalqlarning baxshilari orasida ham mashhur. Uning qator versiya va variantlari yozib olingan.

Hozirgi globallashuv sharoiti, “ommaviy madaniyat” ta’siri xalqimizning asl qadriyatlarini munosib baholashni, ularni yosh avlod ehtiyojlari va davr talablariga mos holda targ’ib etishni, jahon folklorshunosligining eng yangi va dolzarb nazariy konsepsiyalari asosida o’rganishni bosh vazifaga aylantirmoqda.

O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 21-oktabrdagi PF-5850-son «O’zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqei tubdan oshirish chora-tadbirlari to’g’risida»gi Farmoni, 2017-yil 24-maydagi «PQ-2995-son «Qadimiy yozma manbalarni saqlash, tadqiq va targ’ib qilish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to’g’risida»gi, 2017-yil 13-sentabrdagi PQ-3271-son «Kitob mahsulotlarini nashr etish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ’ib qilish bo’yicha kompleks chora-tadbirlar dasturi to’g’risida»gi qarorlari, O’zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 24-apreldagi 304-son «Baxshichilik va dostonchilik san’atini yanada rivojlantirish hamda takomillashtirish chora-tadbirlari to’g’risida»gi qarori, shuningdek mazkur faoliyatga tegishli boshqa me’yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo’nalishlariga bog’liqligi. Mazkur dissertatsiya respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I. «Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, madaniy, ma’naviy-ma’rifiy rivojlantirishda innovatsion g’oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish» ustuvor yo’nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o’rganilganlik darajasi. Dunyo folklorshunosligining Amerika, Germaniya, Rossiya, Koreya, Turkiya kabi yirik ilmiy markazlarida ham “Alpomish” dostoni yuzasidan tadqiqotlar olib borilgan.² Ular ko’pincha ushbu dostonning versiya va variantlari, ularni qiyosiy o’rganishga qaratilgan. Shuningdek, dostonning rus, nemis, ingliz, turk tillariga tarjimalarini amalga oshirishda H.Paksoy, S.Baura, L.Penkovskiy, Karl Rayxl, Oysu Shimshek va Oynur Oz xizmatlari katta bo’ldi.

O’zbek folklorshunosligida “Alpomish”ning versiya va variantlari, doston sujeti, motivlar silsilasi, obrazlari, ijro xususiyatlari, baxshilar repertuaridagi o’rni xususida H.T.Zarifov, M.Afzalov, Maqsud Shayxzoda, N.Shukurov, M.Saidov, M.Murodov, T.Mirzayev, O.Sobirov, G’.Musina, M.Qo’shmoqov, T.G’oziboyev,

² Paksoy H.B. “Alpamysh” Central Asian Identity under Russian Rule. – USA, AACAR, 1989. – 683 p.; Жирмунский В.М., Зарифов Х.Т. Узбекский народный героический эпос. – М., 1947. – 582 с; Райхл Карл. Тюркский эпос: традиции, формы, поэтическая структура / Пер. с англ. В. Трейстер под ред. Д.А. Функа. – М.: Восточная литература, 2008. – 383 с.; Ингёнг О. “Алпомиш” ва “Жумўнг” дostonларининг қиёсий типологияси: Филол. фан докт. дисс. ... автореф. – Тошкент, 2014. – 75 б.

S.Yo‘ldosheva, I.Yormatov, A.Ergashev, O.Madayev, M.Jo‘rayev, Sh.Turdimov, J.Eshonqulov, N.G.Allamberganova izlanishlari alohida e‘tiborga molik.³

“Alpomish” dostoniga bag‘ishlab xalqaro konferensiyalar o‘tkazilib, materiallari to‘plam holida chop etib kelinmoqda.⁴ T.Mirzayev, J.Eshonqulov, Selami Fidokor tomonidan doston lug‘ati tuzildi.⁵ “Alpomish” dostoni “O‘zbek xalq ijodi yodgorliklari” 100-jildligining 1-jildiga kiritildi.⁶

Ushbu tadqiqot “Alpomish” dostonining o‘zbek variantlarida marosimlarning badiiy ifodasini qiyosiy o‘rganishga qaratilganligi bilan hozirgacha bajarilgan ishlardan ajralib turadi.

Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan ilmiy-tadqiqot muassasa-sining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi. Tadqiqot Buxoro davlat universiteti O‘zbek adabiyoti kafedrasida rejasidagi folklorshunoslikning dolzarb muammolari doirasida bajarilib, BuxDU ilmiy-tadqiqot ishlari rejasida tarkibiga kiritilgan.

Tadqiqotning maqsadi o‘zbek dostonchiligi an‘anasida muhim o‘ringa ega “Alpomish” dostonining o‘zbek variantlarida marosimlarning badiiy ifodasini aniqlash asosida epos va marosim munosabatining tarixiy asoslarini, doston sujet tizimida keltirilgan milliy urf-odatlarining badiiy mohiyatini ochib berishdan iboratdir.

Tadqiqotning vazifalari:

dostonning marosimdagi hamda marosimning dostonidagi o‘rnini, epos va marosim, etnos va epos munosabatining tarixiy asoslarini, bu an‘ananing qadimiyligini dalillash;

“Alpomish” dostonining o‘rganilish bosqichlari, metodlari hamda kuylash etosi, uning o‘zbek variantlari sujetiga milliy marosim va urf-odatlarining kiritilish omillarini aniqlash;

“Alpomish” dostonida ifoda etilgan marosimlarning turlarini, undagi arxaik hamda hozirgacha saqlanib kelayotgan marosimlarni tasniflash va tavsiflash;

“Alpomish” dostoni sujet tizimida keltirilgan bola tug‘ilishi va unga ism qo‘yish bilan bog‘liq milliy urf-odatlarining badiiy talqin xususiyatlarini ochish;

³ Шукуров Н. “Алпомиш” дostonи хақида // Шарқ юлдузи. – Тошкент, 1956. – 2-сон. – Б.99; Ғоziбoев Т. “Алпомиш” дostonининг Наманган вариантлари / Ўзбек тили ва адабиёти масалалари. Наманган Давлат педагогика институтининг илмий асарлари тўплами. – Тошкент: Фан, 1969. – Б.3-16; Мирзаев Т. “Алпомиш” дostonининг жаҳон халқлари эпик ижодиётида туган ўрни // Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 1999. – 6-сон. – Б.34–37; Жўраев М. Буюк қахрамонлик эпоси // Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 1999. – 6-сон. – Б.51; Муродов М., Эргашев А. Алпомишнома. I ва II китоблар. – Тошкент: Меҳнат, 1999 – 288 б., 2000. – 568 б.; Мадаев О. “Алпомиш” билан суҳбат. – Тошкент: Маънавият, 1999. – 75 б.; Турдимов Ш. Эпос ва этнос. – Тошкент: Ўзбекистон, 2012. – 98 б.; Эшонқул Ж. Ўзбек фольклорида туш ва унинг бadiий талқини. – Тошкент: Фан, 2011.– Б.304; Алламбергoнoвa Н.Г. “Алпомиш” дostonининг ўзбек ва қoрақалпоқ версиялари қиёсий типологияси: Филол. фан. б-ча фалсафа доктори (PhD) дис. автореферати. – Тошкент, 2019. – 49 б.

⁴ “Алпомиш” дostonи ва жаҳон халқлари эпик ижодиёти” / мавзусидаги халқaro конференция материаллари. – Термиз, 1999. – 377 б.

⁵ Мирзаев Т., Эшонқул Ж., Сeлaми Фидoкoр. “Алпомиш” дostonининг изoхли лугати. – Тошкент: Элмус-Пресс-мeдиa, 2007. – 164 б.

⁶ Алпомиш. Ўзбек халқ ижоди ёдгорликлари. 100 жилдлик. Биринчи жилд. Дoston. Фозил Йўлдош ўгли вариант. Нашрга тайёрловчи: Т.Мирзаев. – Тошкент: Ф.Ғулoм нoмидаги нашриёт-матбаа ижодий уйи, 2015. – 512 б.

dostondan o‘rin olgan nikoh to‘yi bosqichlariga aloqador marosim va urf-odatlar (sovchilik, qayliqqa borish, kelin uzatish, kelinni kutib olish va h.k.) poetik talqinida baxshilar mahoratini asoslash;

“Alpomish”da mehmondorchilik, do‘stlashish bilan bog‘liq odatlar tasviniga xos jihatlarni ko‘rsatib berish.

Tadqiqotning ob‘ekti sifatida “Alpomish” dostonining o‘zbek variantlari tanlangan.

Tadqiqotning predmetini Alpomish” dostonining o‘zbek variantlarida ifoda etilgan xalq marosim va urf-odatlarini tasviri hamda talqini tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqot mavzusini yoritishda tasniflash, qiyosiy-tarixiy, qiyosiy-tipologik, etnofolkloristik, antropologik tahlil usullaridan foydalanildi.

Ishning ilmiy yangiligi quyidagilarda namoyon bo‘ladi:

o‘zbek dostonchiligida epos va marosim, etnos va epos munosabatining ijtimoiy-tarixiy, madaniy-ma‘naviy asoslariga ko‘ra qadimiyligi, an‘anaviyligi asoslangan;

o‘zbek xalq qahramonlik eposi “Alpomish”da ifoda etilgan marosimlarning tug‘ilish, xatna, uylanish, o‘lim bilan bog‘liq turlari, undagi arxaik hamda hozirgacha saqlanib kelayotgan oilaviy-maishiy marosimlar dostonning sujet modelini va morfologiyasini tashkil etgani isbotlangan;

“Alpomish” dostonining o‘zbek variantlari badiiy kompozitsiyasidan o‘rin olgan arxaik oilaviy-maishiy marosimlar bosh qahramonning mo‘jizaviy tug‘ilishi, qayta nomlanishi, sirli qobiliyat va qurolga, otga ega bo‘lishi, eranlar homiyligida yurishi kabi belgilarlarda berilgani, unda qabilaviy-urug‘chilik tushunchalari idealizatsiyalangan dalillangan;

doston sujetida bola tug‘ilishi, unga ism qo‘yish, nikoh to‘yiga aloqador marosim va urf-odatlarining badiiy tasvir xususiyatlari, milliy va estetik mohiyati, ularni epik motivlashtirilishda real turmush manzarasi bilan epik haqiqat muvofiqligining ta‘minlanish poetik qonuniyatlari ochib berilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

“Alpomish” dostonining o‘zbek variantlarini qiyosiy o‘rganish asosida ularning badiiy kompozitsiyasida marosimlarning o‘rni va poetik ifodasi, turlari, milliy xususiyatlari kompleks tadqiq etilgan;

doston badiiy kompozitsiyasini belgilashda marosimlar muhim o‘rin tutganligi, unda tug‘ilish, bolaga ism qo‘yish, oila qurish, nikoh to‘yi bilan bog‘liq qator urf-odatlarimiz badiiy ifoda topganligi ilmiy jihatdan asoslangan;

doston va marosim, etnos va epos munosabati, ya‘ni dostonning marosimdagi hamda marosimning dostonidagi, shuningdek, xalq madaniy-ma‘naviy hayotidagi o‘rni etnofolkloristik tahlil ob‘ekti sifatida o‘rganilgan;

dostonlar va marosimlar ommalashishida ularning bir-biriga ta‘siri isbotlangan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi muammoning aniq qo‘yilgani, chiqarilgan xulosalarning tasniflash, qiyosiy-tarixiy, qiyosiy-tipologik, etnofolkloristik, antropologik tahlil usullari bilan asoslangani, “Alpomish” dostonining ayrim versiya va variantlariga tayanilganligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati chiqarilgan nazariy xulosalar o'zbek dostonlarining tarixiy asoslari, yuzaga kelish va yashash omillari, taraqqiyot bosqichlari, o'ziga xos janriy xususiyatlari, epik ijodga xos versiya va variantlilik bilan bog'liq ma'lumotlarni o'rganishda, ularning kompozitsiyasida marosimlar alohida o'rin tutishini idrok etishda muhim nazariy ahamiyat kasb etishi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati shundan iboratki, undagi "Alpomish" dostoni variantlarida badiiy ifoda etilgan xalq marosimlarining tasviri va talqinining qiyosiy o'rganilishiga oid umumlashma va materiallardan oliy o'quv yurtlarida xalq og'zaki badiiy ijodiyoti, folklor matnshunosligi fanlari bo'yicha ma'ruzalar o'qishda, maxsus kurslar o'tishda, dars mashg'ulotlari olib borishda, o'quv qo'llanmalar, darslik, majmualar yaratishda keng foydalanish mumkin.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. "Alpomish" dostonida marosimlarning badiiy ifodasini aniqlash jarayonida erishilgan ilmiy natijalar asosida:

epos va marosim, etnos va epos munosabati, dostonning marosimdagi hamda marosimning dostonidagi o'rni, bu an'ananing dunyo xalqlari folklorida ijtimoiy-tarixiy, madaniy-ma'naviy jihatdan qadimiyligi asoslangan xulosalardan O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Qoraqalpog'iston bo'limi Qoraqalpoq gumanitar fanlar ilmiy-tadqiqot institutida bajarilgan FA-F1-005 "Qoraqalpoq folklorshunosligi va adabiyotshunosligi tarixini tadqiq etish" (2017 – 2020-y.) mavzusidagi fundamental ilmiy loyihani bajarishda foydalanilgan (Qoraqalpoq gumanitar fanlar ilmiy-tadqiqot institutining 18.01/43-sonli ma'lumotnomasi. 18.01.2023). Natijada "Alpomish" dostonining o'zbek variantlarini qiyosiy o'rganish asosida ularning badiiy kompozitsiyasida marosimlarning o'rni va poetik ifodasi, turlari, milliy xususiyatlarini kompleks tadqiq etishga, doston poetik kompozitsiyasini belgilashda marosimlar muhim o'rin tutganligi, unda tug'ilish, bolaga ism qo'yish, oila qurish, nikoh to'yi bilan bog'liq qator urf-odatlar badiiy ifodalanganini asoslashga, doston va marosim, etnos va epos munosabati, ya'ni dostonning marosimdagi hamda marosimning dostonidagi, shuningdek, xalq madaniy-ma'naviy hayotidagi o'rnini etnofolkloristik tahlil obyekti sifatida o'rganishga erishilgan. Bu esa dostonning marosimdagi hamda marosimning dostonidagi o'rnini, epos va marosim, etnos va epos munosabatining tarixiy asoslarini, bu an'ananing qadimiyligini dalillashga, "Alpomish" dostonining o'rganilish bosqichlari, metodlari hamda kuylash etosi, uning o'zbek variantlari sujetiga milliy marosim va urf-odatlarining kiritilish omillarini aniqlashga, dostonida ifoda etilgan marosimlarning turlarini, undagi arxaik hamda hozirgacha saqlanib kelayotgan marosimlarni tasniflash va tavsiflashda xizmat qilgan;

"Alpomish" dostoni o'zbek variantlari sujetida bola tug'ilishi, unga ism qo'yish, nikoh to'yiga aloqador marosim va urf-odatlarining badiiy tasviri milliy va estetik aspektda, real turmush manzarasi bilan epik haqiqatni poetik muvofiqlashtirib epik motivlashtirilgani, unda bosh qahramonning mo'jizaviy tug'ilishi, qayta nomlanishi, sirli qobiliyat, qurol, otga ega bo'lishi, doimo eranlar homiyligida yurishi kabilar asosida berilishi orqali arxaik epos namunasi ekani

anglashilishi haqidagi ilmiy xulosalardan “Buxoro” telekanalining “Dolzarb mavzu”, “Intervyu plyus”, “Assalom, Buxoro”, “Sakkizinchi mo‘jiza” ko‘rsatuvlarida foydalanilgan (Buxoro viloyat teleradiokompaniyasining a02-02-43 raqamli ma’lumotnomasi. 13.02.23). Natijada ushbu teleko‘rsatuvlar uchun tayyorlangan materiallarning mazmuni mukamallashuviga, ilmiy dalillarga boy bo‘lishiga, ko‘rsatuvning ilmiy-ommabopligi ta’minlanishiga erishilgan. Keltirilgan tahlillar esa teletomoshabinlarning bilimi, kitobxonlikka qiziqishini oshirish imkonini bergan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Tadqiqot natijalari 13 ta ilmiy-amaliy anjumanda, shu jumladan, 7 ta respublika, 6 ta xorijiy konferensiyalarda qilingan ma’ruzalarda aprobatsiyadan o‘tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e’lon qilinishi. Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha 28 ta ilmiy ish, O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 2 ta ilmiy maqola, ulardan 4 tasi xorijiy jurnallarda chop etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, uch bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati va ilovadan iborat. Umumiy hajmi 150 bet.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati asoslanib, tadqiqotning maqsadi va vazifalari, obyekt va predmeti aniqlangan. Tadqiqotning O‘zbekiston Respublikasi fan va texnologiyalar taraqqiyotining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi ko‘rsatilib, ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon etilgan. Olingan natijalarning ishonchliligi asoslanib, ishning nazariy va amaliy ahamiyati ochib berilgan. Tadqiqot natijalarining amaliyotga joriy qilinishi, aprobatsiyasi ko‘rsatib o‘tilgan.

Dissertatsiyaning birinchi bobi “**Doston va marosim munosabatining tarixiy ildizlari**” deb nomlangan bo‘lib, uch fasldan tarkib topgan. “*Alpomish dostonini o‘rganish bosqichlari va metodlari*” deb atalgan ilk faslda xorijiy va o‘zbek alpomishshunosligining qisqacha tarixi yoritilgan.

“Alpomish”ni tarjima qilish va ilmiy o‘rganishda rus, nemis, ingliz, koreys, turk olimlarining alohida hissasi bor. Ishda bu jihatdan amerikalik Hasan Paksoy⁷, S.Baura, rus olimlari V.M.Jirmunskiy, L.Penkovskiy, nemis folklorshunosi Karl Rayxl, koreyalik olim O.Ingyong olib borgan tadqiqotlariga e’tibor qaratildi. Xususan, K.Rayxl dostonidagi turkiy xalqlar ertak va dostonlari bilan uyqash keladigan o‘rinlarga ahamiyat qaratgani ko‘rinadi. Haqiqatan ham, bu jihatdan dostonidagi “elchi yuborish”, “eldan begona yurtga ko‘chish”, “qiz va yigitning bir-biriga sevgisi, unga yaqinlarining qarshiligi yoki ijobiy munosabati”, “kuyov bo‘ladigan yigitning ijtimoiy kelib chiqishi”, “kuyov bo‘lmish yigitning qaylig‘i o‘ylab topgan vazifalar (shartlar)ni bajarishi”, “kuyov bo‘lmishning oldida paydo

⁷ Paksoy H.B. “Alpamysh” Central Asian Identity under Russian Rule. – USA, AACAR, 1989. – 683 p; Жирмунский В.М., Зарифов Х.Т. Узбекский народный героический эпос. – М., 1947. – 518 с.; Райхл Карл. Тюркский эпос: традиции, формы, поэтическая структура / Пер. с англ. В. Трейстер под ред. Д.А. Функа. – М.: Восточная литература, 2008. – 383 с.; Ингёнг О. “Алпомиш” ва “Жумўнг” дostonларининг қиёсий типологияси: Филол. фан докт. дисс. ... автореф. – Тошкент, 2014. – 75 б.

bo'lgan to'siqlarni yengib o'tishi, belgilangan shartlarni jasorat bilan uddalashi", "sevishganlarning birlashishi, "yangi kuyovning paydo bo'lishi", "turmush o'rtog'ining ikkinchi marta turmushga chiqayotgani", "kuyov-qahramonning o'z sevgilisi (rafiqasi) to'yida shoshilinch, ammo o'z vaqtida paydo bo'lishi" kabi an'anaviy motivlar alohida e'tiborni tortadi. Xuddi shu motivlar ertaklardagi kabi dostonlarda ham muayyan syujetli model bo'lishini dalillashga xizmat qila oladi va dostonlar morfologiyasida motivlarning joylashish tartibi haqida tasavvur-tushuncha uyg'otadi.

"Alpomish" dostonida ikkita to'y motivi keltirilgan: a) farzand to'yi; b) Alpomish va Barchinoyning nikoh to'yi). Folklorshunos Sh.Turdimov "Alpomish" dostonidagi birinchi "to'y" motivini "Er munojoti va Ko'k inoyati birlashdi", ikkinchisini esa "Ungan urug' Ko'k va Yer ardog'ida" deb izohlagan⁸.

"Alpomish" dostonida yangi kuyov – Ultontozning paydo bo'lishi, bosh qahramon Alpomishning qalmiqlar va ularning xoni bilan jang qilishi motivi aslida jahon adabiyotida ko'pgina variatsiyalarda takrorlanuvchi an'anaviy syujet halqalaridan biridir. Ko'pincha bunda kelinning sobiq turmush o'rtog'i yashirin qiyofada elatiga kirib kelishi, uning qashshoq, ziyoratchi, darvesh qiyofasida ko'rinishi umumiy holat sifatida namoyon bo'ladi. Bu haqda ilk bor G'ozim Olim Yunusov o'z fikrlarini bildirgan.⁹ Undan keyin V.M.Jirmunskiy, Sh.Turdimov, E.Eshonqulov ham bu haqda to'xtalgan.¹⁰ Shuningdek, dostonda ruslarning "Dobriniy Nikitich va Alyosha Popovich haqida blinasiga ham mazmunan yaqinligi ko'rinadi."¹¹

O'zbek folklorshunosligida "Alpomish" dostoni bo'yicha bajarilgan tadqiqotlarni quyidagicha davrlashtirish mumkin: **1. XX asrning 1940-50-yillari.** Bu vaqt urush davri bo'lishiga qaramay, rus olimi V.M.Jirmunskiy bilan o'zbek olimi H.T.Zarifovlar o'zaro do'stona hamkorlik o'rnatib, birgalikda "O'zbek xalq qahramonlik eposi" kitobini rus tilida yaratib, chop ettirishdi. Shu bilan o'zbek alpomishshunosligining nazariy tamal toshi qo'yildi. Undan so'ng M.Afzalov, H.Zarifovning dostonshunoslikka bag'ishlangan bir necha muhim ilmiy maqolalari e'lon qilindi.¹² **2. XX asrning 1960-70-yillari.** Bu davrga kelib, doston poetikasi, variantlari masalalarini ilmiy-nazariy tadqiq etishga e'tibor ortgani kuzatiladi. Ayni masalaga N.Shukurov, T.G'oziboev, O.Sobirov, M.Saidov, H.Zarifov, T.Mirzaev, M.Qo'shmoqov katta hissa qo'shishdi. **3. XX asrning 1980-90-yillari.** Bu davrda

⁸ Турдимов Ш. Этнос ва эпос. – Тошкент: Ўзбекистон, 2012. – Б.7.

⁹ Юнусов Ғози Олим. "Алпомиш" дostonи // Билим ўчоғи. – Тошкент, 1923. – № 2-3. – Б. 37-39.

¹⁰ Жирмунский В.М. Вопросы генезиса и истории эпоса "Алпамыс". Тезисы докладов и сообщений регионального совещания по эпосу "Алпамыш". – Тошкент, 1956. – 250 с; Жирмунский В.М. Эпическое сказание об Алпамыше и Одиссея Гомера. Т.16. Вып. 2. – Тошкент: Изд. АН. Отд. Литературы и языка, 1957. – 17 с.; Турдимов Ш. Қиёслап // Эпос ва этнос. – Тошкент: Ўзбекистон, 2012. – Б.76-77.

¹¹ Ekici Metin. Turk Destanlarından "Alpamis Destanı" ve "Bamsi Beyrek Destanı" ile Slav Destanı "Dobriniya ve Alyosha Popovich Destanı" Arasındaki İlişki // Вахshichilik san'atining jahon madaniyati sivilizatsiyasida tutgan o'rni. II Халqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari. – Nukus, 2021. – Б.206.

¹² Афзалов М. "Алпомиш" дostonининг вариантлари хақида // Шарқ юлдузи. – Тошкент, 1956. – 7-сон. – Б.107–117; Афзалов М.И. Узбекская версия эпоса "Алпамыш" / Об эпосе "Алпамыш", Материалы по обсуждению эпоса "Алпамыш", ответственные редакторы В.И.Чичеров и Х.Т.Зарифов, – Ташкент: Изд-во АН УзССР, 1959. – С. 144-157; Зарифов Х.Т. Основные мотивы эпоса Алпамыш // Об эпосе "Алпамыш". – Ташкент: Фан, 1959. – С. 6–25; Зарифов Х. "Алпомиш" эпосининг асосий мотивлари. "Алпомиш" – Ўзбек халқ қахрамонлик эпоси. – Тошкент: Фан, 1999. – Б.45.

doston bo'yicha ilmiy tadqiqotlar soni orta bordi. G'.Musina dostonidagi xotin-qizlar obrazlari (1983), S.Yo'ldosheva "O'zbek xalq qahramonlik eposi – "Alpomish"ning badiiyati" (1984) mavzusida dissertatsiyalar yoqladilar. **4. XX asr oxiri va XIX asr boshlari yoki Istiqlol davri alpomishshunosligi.** I.Yormatov, M.Murodov, A.Ergashev, O.Madayev, J.Eshonqulov, N.Ochilov, N.Allamberganova tadqiqotlari bevosita "Alpomish" eposining kuylanishiga, baxshilar repertuaridagi o'rniga, badiiy xususiyatlariga istiqlol baxsh etgan ijodiy erkinlik orqali yondashilgani bilan ayriча аhamiyat kasb etadi.

Dostonning ming yilligi munosabati bilan "O'zbek tili va adabiyoti" jurnalida e'lon qilingan T.Mirzayev va M.Jo'rayevlarning maqolalari, M.Murodov va A.Ergashev hammuallifligida, O.Madayev tomonidan nashr qilingan risola va monografiyalar doston yubileyiga chin to'yona bo'ldi, deyish mumkin.¹³ Yana unga bag'ishlab yirik xalqaro konferentsiya o'tkazildi.¹⁴

Bizningcha, doston variantlarini **qiyosiy va empirik** o'rganish lozim. Akademik J.Tulenov fikricha, empirik tadqiqot jarayoni uch bosqichdan iborat. Uning birinchi bosqichida syujet voqealari birma-bir nazardan o'tkaziladi. Marosim tasviri keltirilgan parchalar ajratib olinadi. Ularda qo'llangan marosim nomlari, unga daxldor atribut nomlari aniqlanadi. Chunki bunday dalillar aniq ilmiy xulosalarga olib keladi.¹⁵ Ikkinchi bosqichda dostonidagi motiv va obrazlar ajratib olinib, ular o'rtasidagi assotsiativlik (o'zaro ulanish, bog'lanish), obyektiv aloqa va munosabatlar belgilab ko'rsatiladi. Shundan so'ng ular mavzuiy jihatdan muayyan guruhlarга ajratilib, turkumlashtiriladi, tahlil qilinadi va tizimlashtiriladi. Uchinchi bosqichda doston tarkibidan nega marosim va urf-odatlar talqini o'rin olish sabablari ochib beriladi. Keltirilgan marosimlarning bog'liqligi aniqlanadi. Ularning umumiy va xususiy belgilari yoritiladi.

Dostonlarni ritualistik nazariyaga muvofiq yoki qiyosiy-tipologik jihatdan o'rganish ham mumkin. Masalan, "Go'ro'g'li" turkumiga aloqador "Avazxon" dostoni romanik eposlarning qahramonlik turiga mansub bo'lib, u ham xuddi "Alpomish" kabi befarzand Go'ro'g'lining iztiroblari bilan boshlanadi. Shuningdek, "Avazxon" va "Alpomish"da "tuhfa to'n olish" yoki o'lim bilan bog'liq motam marosimiga aloqador ayrim udumlar keltirilishi ularni ham tarixiy-qiyosiy, ham etnofolkloristik metodlarda o'rganish zaruriyatini ko'rsatadi.

Sh.Turdimov "Etnos va epos" munosabati xususida fikr yuritarkan: "Qiyos tushuntirishga xizmat qilganidek, butunni qismlarga ajratish, yaxlitlash ham anglashni osonlashtiradi", – deydi.¹⁶ J.Eshonqulov esa: "Epos va marosimni o'rganishda, avvalambor, qiyosiy-tipologik metodning ustuvorligini inkor etmagan holda, struktural, lingvopoetik va ruhiy tahlil kabi ko'plab metodlarga ham

¹³ Мирзаев Т. "Алпомиш" достонининг жаҳон халқлари эпик ижодиётида тутган ўрни // Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 1999. – 6-сон. – Б.34-37; Жўраев М. Буюк қахрамонлик эпоси // Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 1999. – 6-сон; Муроdов М., Эргашев А. Алпомишнома. I ва II китоблар. – Тошкент: Мехнат, 1999 – 288 б., 2000. – 568 б.; Мадаев О. "Алпомиш" билан суҳбат. – Тошкент: Маънавият, 1999. – Б.75.

¹⁴ "Алпомиш" достони ва жаҳон халқлари эпик ижодиёти" / мавзусидаги халқаро конференция материаллари. – Термиз, 1999. – 377 б.

¹⁵ Туленов Ж. Ҳаёт фалсафаси. – Тошкент: Ўзбекистон, 1993. – Б.32; Туленов Ж. Қадриятлар фалсафаси. – Тошкент: Ўзбекистон, 1998. – 236 б.

¹⁶ Турдимов Ш. Этнос ва эпос. – Тошкент: Ўзбекистон, 2012. – Б.6.

suyanish lozim bo‘ladi”, – deydi.¹⁷ Darhaqiqat, “Alpomish” dostonining badiiy strukturasi juda ko‘plab diaxron va sinxron, ya’ni arxaiklashgan, iste’moldan chiqib ketgan va hozirgacha saqlanib kelayotgan bir qator magik, olaviy-maishiy marosimlar mazmuni singdirilgan bo‘lib, ularni qiyosiy-tipologik tahlil qilish, o‘zaro qiyoslash natijasida, olim alohida ta’kidlaganidek, “epos va eposdagi motivlar bilan muqoyasalash imkoniyati tug‘iladi”. Shuningdek, “lingvopoetik va ruhiy tahlil metodlari epos va marosim semantikasini chuqurroq yoritib berishda asosiy omil bo‘lsa, struktural metod epos va marosim tizimini o‘rganishda muhim ahamiyat kasb etadi.¹⁸

Barcha xalq dostonlari qatori “Alpomish” dostonida ham eposning syujetli modeli namoyon bo‘ladi.

Birinchi bobning ikkinchi fasli *“Alpomish”da epos-etnos-marosim birligi ifodasining tarixiy-hayotiy asoslari*” deb nomlangan. Rus folklorshunosi B.Putilov “Epos va marosim” masalasiga alohida e’tibor qaratarkan, ularning bir-biriga bog‘liqligini alohida ta’kidlaydi.¹⁹ Darhaqiqat, dostonlarning badiiy syujet tuzilishi B.Putilov haqligini tasdiqlaydi. Alpomish” dostoni garchi qahramonlik dostoni bo‘lsa-da, unda xalqimizning madaniy-maishiy turmush tarzi, o‘ziga xos oilaviy marosimlari, urf-odat va an’analari tasviri muhim o‘rin egallagan.

Eposlarning marosim bilan bog‘liqligini dalillovchi ikki muhim jihat bor. Birinchisi – marosimlarning eposda aks etishi, ya’ni badiiy ifoda etilishi bo‘lsa, ikkinchisi – eposning marosimdagi o‘rni va vazifasidir.²⁰

Doston va marosim bog‘liqligini dalillovchi belgilar, nazarimizda, quyidagilardan iborat: 1. Doston xalq og‘zaki badiiy ijodining o‘ziga xos alohida badiiy shakl tiplaridan biri bo‘lib, uning tarkibida ko‘pincha to‘y va motam marosimiga aloqador qo‘shiqlar uchraydiki, bundan uning ma’lum ma’noda marosim qo‘shiqlari bilan genetik aloqadorlikda shakllangani anglashiladi. 2. Dostonlar epik she’riyat ko‘rinishi sifatida marosimlarni keng ommalashtirish, ularning ta’sirchanligini oshirish uchun marosimlar jarayonida ijro qilingan. 3. Dostonlar ko‘pincha to‘y marosimlari tarkibida ijro qilinib, kishilar o‘rtasida axloqiy-ta’limiy qarashlarni tarqatish funksiyasini ham bajargan. 4. Doston marosimdan o‘sib chiqmaydi yoki marosim doston ta’sirida shakllanmaydi. Lekin marosimlar tasviri va talqini, ularga aloqador folklor janrlari ishtirokida yaratilgan dostonlar uchraydi. 5. Dostonlar poetik strukturasi marosim tasviriga aloqador motivlar uning syujetini shakllantirib, morfologiyasini belgilab kelgani kuzatiladi.

Hozirgacha epos va marosim munosabatini oydinlashtirishdan ko‘ra, ko‘proq dostonlarning poetik xususiyatlarini o‘rganishga, turlarini aniqlashga, ularning boshqa folklor janrlari (masalan, mif, afsona, rivoyat, ertak, qo‘shiqlar) bilan genetik aloqadorligini asoslashga urinish kuchliroq. Bu borada yig‘ilgan ilmiy xulosa va tajribalar asosida, avvalo, “Alpomish” dostonining mif bilan munosabati borligini aytish kerak. Buni asoslashda qahramonning tug‘ilmasdanoq homiy

¹⁷ Эшонкул Ж. Туш, маросим ва эпос // Ўзбек фольклорида туш ва унинг бадий талқини. – Тошкент: Фан, 2011. – Б.94-95.

¹⁸ О`sha manba. – Б.95.

¹⁹ Путилов Б. Эпос и обряд // Фольклор и этнография. – Л.: Наука, 1974. – С.76

²⁰ Эшонкул Ж. Ўзбек фольклорида туш ва унинг бадий талқини. – Тошкент: Фан, 2011. – Б.94.

eranlar nazarida turganligi – nazarda ekanligini dalil keltirish mumkin. Sh.Turdimov ta’kidlaganidek, “eposning qadimiy shaklida alp to’g’ridan-to’g’ri ilohlar farzandi... deb talqin etiladi”.²¹ M.Jo’rayev “Alpomish” dostonidagi mifologik obrazlar xususida o’z fikrlarini bayon etgan.²²

“Alpomish” dostoni va afsona munosabati Boybo’ri va Boysarining farzand so’rab Shohimardon pir ravzasiga (bu o’rinda toponimik afsona syujetiga murojaat kuzatiladi) borishi, Alpomish xuddi Yusuf payg’ambar kabi bolalik paytida qulquntoy qushning bolasiga ozor yetkazishi va o’zi ham ozorga yo’liqishi, “Alpomish” dostoni zuvalasi N.Y.Bichurin xitoy yozma manbalariga tayanib, ilm olamiga olib kirgan “Ashina” (“Bo’ri”) afsonasi syujeti bilan ham bog’lanishida aks etadi. Unda Ashina yangidan tiklangan urug`ning bosh sardori sifatida tasvirlanadi.²³

“Alpomish” dostoni bilan rivoyat munosabati urug’lar o’rtasida kechgan jang va hujumlar, ularning ko’pincha qiz oldi-berdisi tufayli yuz bergani, bunda oila sha’ni uchun kurashish motivlari hayotiy voqelikka asoslanganligi bilan e’tiborni tortadi. Biroq, Sh.Turdimov aytganidek: “Doston tarix emas, ammo tarix dostonidan sirtda bo’lmas... Epos xalqning ma’naviy qiyofasi, badiiy talqindagi tarixi”.²⁴

“Alpomish dostoni va ertak munosabatini dalillashda O.Madayevning “Alpomish” dastavval mif, afsona, rivoyat, ertak tarzida dunyodagi turkiy elatlar orasida yaratilgan, keyinchalik esa o’zbeklar istiqomat qiladigan hududlarda doston shaklida ijro etila boshlagan”²⁵ degan fikri asos bo’la oladi. Dostonda shunday motivlar borki, ular beixtiyor u yoki bu ertak syujetini yodga soladi. Ulardan biri Alpomishning qarshisidan o’tayotgan karvon bilan savol-javobi “Ur to’qmoq” ertagidagi chol va yilqiboqarlarning xuddi shunday dialogini eslatadi.

Qo’shiq va “Alpomish” dostoni munosabati kuyovning to’y qo’shiqlarini ijro etishi misolida yorqin ko’rinadi. Bu motiv epik asarlarga xos yadro motivlardan biridir.

Dostondagi marosimlar ifodasi orqali hozirgi paytda unutilgan, iste’moldan chiqib ketgan ayrim marosim, urf-odatlar haqida ham ma’lumot olish mumkindir. Chunki ular o’ziga xos real olam manzarasi sifatida muayyan poetik qonuniyatlar asosida quriluvchi epik asarlarda epik haqiqat hamda epik olam manzarasining o’ziga xos modeli tarzida ifoda topadi. Lekin marosimlarning badiiy modeli bilan haqiqiy marosim hamisha bir-biriga to’g’ri kelmaydi. Chunki marosimlar kishilik jamiyatining turli bosqichlaridagi siyosiy-tarixiy va kundalik hayot, ijtimoiy munosabatlar, tafakkur tarziga mos holda yashaydi.

Birinchi bobning uchinchi fasli **“Epos hamda marosim munosabatining qadimiyligi va an’anaviyligi”** deb atalgan. Dostonda nikohning ikki xil tartibi

²¹ Турдимов Ш. Этнос ва эпос. – Тошкент: Ўзбекистон, 2012. – Б.40.

²² Жўраев М. “Алпомиш” дostonида мифологик образлар // “Алпомиш” – ўзбек халқ қахрамонлик эпоси. – Тошкент: Фан, 1999. – Б.147–157.

²³ Бичурин Н. Я. Собрания сведений о народах, обитавших в Средней Азии в древние времена. Т.1. – М., 1950. – С.220.

²⁴ Турдимов Ш. Этнос ва эпос. – Тошкент: Ўзбекистон, 2012. – Б.71-72.

²⁵ Мадаев О. “Алпомиш” билан суҳбат. – Тошкент: Маънавият, 1999. – Б.16.

ifoda etilgan. Nikohning matrilokal hamda endogamik tartibi mavjud bo‘lib,²⁶ endogamiya qarindoshlar, urug‘doshlar, fratriyalar yoki mahalliy jamoa a‘zolari o‘rtasidagi nikoh munosabatlari taqiqini bildiradi. “Alpomish” dostonida bu 14 yoshli Alpomishning Barchinga uylanishni xohlamasligi misolida talqin qilingani kuzatiladi.

Eposdagi marosimlar tasviri va talqini funktsional xususiyatga ega bo‘lib, bizningcha, ikkita vazifa bajarib keladi: a) xalq marosimlari haqidagi ma’lumotlarni avloddan-avlodga taqdim qiladi; b) xalq marosimlarining tuzilishi, maqsadi, mazmun-mohiyati bo‘yicha bilimlarni ongda shakllantirish va umumlashtirishga xizmat etadi.

Dissertatsiyaning **“Alpomish” dostonining o‘zbek variantlari kompozitsiyasida marosimlarning o‘rni**” nomli ikkinchi bobi ham uch fasldan iborat. Ilk fasl **“Alpomish” dostonida arxaik marosim belgilarining badiiy ifodasi**” deb atalgan. “Alpomish”da arxaik eposga xos ayrim belgilar mavjudligi ayri-ayri e‘tiborni tortadi. Bular esa quyidagilarda namoyon bo‘ladi: 1. Bosh qahramon – Alpomishning mo‘jizaviy tug‘ilishi va sehri qobiliyatlar egasi qilib tasvirlanishi. 2. Mumtoz eposda bo‘lgani kabi qahramonning ko‘pincha sehri qurollarga egalik qilishi va undan foydalanishi motivi ham muhim o‘rin tutadi. 3. “Alpomish” dostonida jodugarlik, shomonizm qoldiqlari (Surxayl kampir, Bodom bikach singari salbiy timsollar orqali) qoralanadi. 4. Surxayl va uning o‘g‘illari o‘limi, makr-hiyla va fitnalarining barbod bo‘lishi aslida har qanday sehri (magik) marosimlarning zaifligini ochib berishga yordam beradi. 5. Doston badiiy strukturasi qabilaviy tuzum, urug‘chilik tushunchalari xarakterli idealizatsiyalangan shaklda qayta ishlangan. 6. Dostondagi Surxayl kampirning Qalmoqshohga va o‘g‘illariga, Bodom bikachning esa Ultontozga yo‘l ko‘rsatib, maslahatgo‘ylik qilishi motivi qadimgi eposlar badiiy strukturasi xos “dono ona” obrazini aks ettiradi. 7. Qahramonga xizmat qiladigan marosimlar tasvirining keltirilishi. Bunga dostonda keltirilgan qahramonning tug‘ilishi, uylanishi bilan bog‘liq qator marosimlar tasvirini misol qilish mumkin. 8. Dostonda Alpomishni oti Boychiborning qutqaruvi voqeasi xalqning ot totemiga ishonchini o‘zida badiiy ifoda etadi.

Matriarxal va patriarxal qabilaviy urf-odatlar bilan aloqalarni saqlab turishda marosimlarning o‘z o‘rni bo‘lgan. Shu boisdan ularni epos tarkibida motivlashlashtirishda quyidagicha qarindoshlik munosabatlari alohida-alohida berilgan: ona-bola munosabati: Surxayl // yetti qalmoq alplar, Barchin // onasi, Bodom bikach // Ultontoz, Kuntug‘mish // Alpomish, Barchin // Yodgor; ota-bola munosabati: Boybo‘ri // Alpomish, Alpomish // Yodgor, Boybo‘ri // Ultontoz; ota-qiz munosabati: Boysari // Barchin, Toychixon // Tovkaoyim; aka-uka munosabati: Boybo‘ri // Boysari, Qorajon // olti qalmoq alplari; aka-singil munosabati: Alpomish // Qaldirg‘och; er-xotin munosabati: Alpomish // Barchin; o‘gay farzandlar munosabati: Ultontoz // Alpomish; Ultontoz // Qaldirg‘och; tutingan ota-bola munosabati: Qultoy // Alpomish; amma / jiyani munosabati: Qaldirg‘och // Yodgor; o‘gay ona va o‘gay bola munosabati: Kuntug‘mish // Ultontoz, Alpomish

²⁶ <https://ru.wikipedia.org/wiki/Экзогамия>.

// Bodom bikach. Ular asosida shakllantirilgan epik motivlar, urf-odat va marosimlar bilan bog‘liq tasvir va talqinlar esa faqat etnografik epik kontekstdagi syujet motivlari sifatida emas, balki o‘ziga xos odatiy, an’anaviy formulalar sifatida qaralishi maqsadga muvofiq bo‘ladi.

J.Eshonqulov arxaik epos bilan marosim strukturasi o‘zaro uyg‘un kelishi “Alpomish” dostonida shajaraga alohida urg‘u berilishi, Hakimbekning tug‘ilishi va doimo pirlar ko‘magida bo‘lishi, qahramonliklar namoyish etishi, safarga otlanishi, yovuzlikka (yovuz ruhlarga) qarshi kurashi, yetti yillik zindon, ya’ni ramziy o‘liklik holatidan so‘ng qayta tirilib chiqib, Qultoy qiyofasiga kirishi struktural jihatdan shomonlik marosimi bilan aynan bir xil ekanligidaligini aytadi.²⁷

“Alpomish” dostonida Boboxon tog‘ida yolg‘iz qolib, Boychibor bilan boylovli qolgan Qorajon har ikkalasiga madad tilar ekan, avliyolarni shafe keltirib, iltijo qiladi. O.Qayumov avliyolar yoki marhum bo‘lgan qarindoshlari, ajdodlari ruhini yod olish, ularning nomini zikr etish, ulardan madad kutish shomon yo‘qlovlarning xarakterli jihatlaridan sanalishini qayd etadi.²⁸

Dostonda Alpomishning otni tanlashda “Saman sariga tush, yo olapocha to‘riga tush, shapaqning zo‘riga tush” deb ishga kirishishi, sinchi va sinchilik, isiriq tutash, bir yigitning xabarchi qushni otish orqali falokatga giriftor bo‘lishi bilan bog‘liq lavhalar o‘zida ot, o‘simlik, qushlarga aloqador qadimiy qarashlarni mujassamlantirgani jihatidan e’tiborlidir.

Umuman aytganda, “Alpomish” – mumtoz epos. Unda qo‘llangan har bir detal o‘z mazmun-mohiyatiga ega. Hatto J.Eshonqul ta’kidlaganidek, Barchinning tepalikka o‘tov tikishi ham qadim marosimning dostonidagi badiiy ifodasidir.²⁹

Ikkinchi bobning **“Dostonda an’anaviy oilaviy-maishiy marosimlar ifodasi”** nomli ikkinchi faslida “Alpomish” dostonida o‘z ifodasini topgan marosimlar uch tipga bo‘lib o‘rganilgan: 1. Hozirgi maishiy turmushda o‘z o‘rniga to‘la ega bo‘lgan marosimlar (bunga sovchi qo‘ymoq, oyna ko‘rsatar, to‘qqiz tovoq, olovdan aylanmoq kabi va h.k.); 2. Hozirgi maishiy turmushda o‘z o‘rnini qisman saqlab qolgan marosimlar (bunga beshikkirti qilmoq, “soch siypatar”, “kampir o‘ldi”, kuyovga kelin tomonidan shartlar qo‘yilishi kabi va h.k. 3. Hozirgi maishiy turmushda o‘z o‘rnini batamom yo‘qotgan marosimlar (bunga farzand tug‘ilishidan oldin otaning ovga jo‘nab ketishi, tushni ta’birlash marosimi va h.k.).

“Alpomish” dostonida badiiy aks ettirilgan marosim va urf-odatlarni bunday tasniflab o‘rganish hozirda xalqimiz hayotida saqlanib qolgan va qolmagan marosimlar haqida bilib olish imkonini beradi.

Odatimizga ko‘ra, oilada er o‘lsa, uning beva qolgan ayoli “vo, to‘ram” deb yig‘i beradi.³⁰ Shu an’anaga muvofiq “Alpomish” dostonida azador Barchinoyning eriga yig‘i qilib, unga bag‘ishlab aytgan yo‘qlovi keltirilgan.

²⁷ Эшонкул Ж. Эпик тафаккур тадрижи. – Тошкент: Фан, 2006. – Б.5.

²⁸ Қаюмов О. Шомон йўқловларининг ўзига хос хусусиятлари // Ўзбек фольклоршунослиги масалалари. Илмий мақолалар тўплами. 1-китоб. – Тошкент: Фан, 2006. – Б. 64-68.

²⁹ Алпомиш. Айтувчи: Фозил Йўлдош. Ёзиб олувчи: Махмуд Зарифов. – Тошкент: “Шарк” нашриёт-матбаа концерни бош тахририяти, 1998. – Б.64.

³⁰ Ўраева Д. Ўзбек мотам маросими фольклори. – Тошкент: Фан, 2004. – 120 б.

Dostonda nafaqat marosimlar, ayrim urf-odatlar tasviri ham keltirilgan. Ulardan biri mehmon kutish, mehmonga borishning tartib-qoidalari tasviridir. O‘zbekona urf-odatlar bo‘yicha, mehmonga shomdan keyin borish taqiqlanadi. Shuning uchun Alpomish: “Kun bevaqt bo‘ldi, bemahal borgan mehmonning izzati, obro‘yi bo‘lmaydi, bugun men sizlarning qushxonalarida yotayin, ertan turib ketayin”, – deydi.

“Alpomish” dostonida oilaviy-maishiy marosimlar, urf-odatlar bilan bir qatorda ayrim irim-sirimlar, e‘tiqodiy inonchlar ifodasi ham ko‘zga tashlanadi. Jumladan, xalqimiz orasida safarga jo‘nayotgan kishini alohida e‘tibor bilan kuzatib qolish, unga oq yo‘l tilab, duo berish odati bor. Shu odatga binoan Alpomish hamma bilan birma-bir xayrlashar ekan, har biri uni chin ko‘nglidan olqishlaydi. Alpomish tilidan she‘riy “safar olqishi” keltiriladi.

Ikkinchi bobning uchinchi fasli ***“Dostonda bola tug‘ilishi va unga ism qo‘yish bilan bog‘liq marosimlar talqini”*** deb nomlangan. O‘zbek oilalarida bola dunyoga kelishi va unib-o‘sishi jarayoni bilan bog‘liq bir qator udumlar amalga oshiriladi.

O‘tmish davrlar udumiga ko‘ra, xotin kishining ko‘zi yorishidan oldin uning eri ovga jo‘nab ketgan. “Alpomish” dostonida bu udumga biylarning xotinlari ko‘zi yorishidan oldin safarga chiqib ketishi tasviri misolida ishora qilingan. Biylar ovdan qaytib, bolalari tug‘ilganini eshitgach, oldiga chiqqanlarga suyunchi berishadi. Har tarafga xabar yuborib, to‘y-tomosha boshlash uchun urug‘va elning katta-kichik biylarini, oqsoqol, arboblarni yig‘dirib, to‘y maslahatini o‘tkazadilar. To‘yni eshitganlar esa “qulluq bo‘lsin”ga kela boshlaydi. Bular aslida hayotiy hodisalardir.

To‘yda Shohimardon pir chaqaloqlarga ism qo‘yadi. Hakimbekka oy Barchinni atashtirib, beshikkerti qiladi. Bundan “beshikkerti”, “ism to‘yi” (ot to‘yi) qadimiyligi anglashiladi.

Dostonda qahramonga ikkinchi nom berish ham odamlarning bir joyga to‘planishi, yig‘in orqali qayd etilgan. Bundan o‘tmishda bolaga ikkinchi nom berish jarayoni ham marosim ko‘rinishida tashkil etilgani anglashiladi.

Doston syujetidan ma‘lumki, Alpomish bandi ketgan vaqtda Barchinoyning bo‘yida homila gumonasi qoladi. Oy-kuni yetgach, u o‘g‘il tug‘adi. Bolaga Yodgor deb nom qo‘yadilar. Dostonda bunga shunday izoh beriladi: “Bul paydo bo‘lgan, Alpomishning joyini tutar deb otini Yodgor qo‘ydi”.

Xalq orasida bola hayotidagi har bir o‘zgarish ham alohida marosimlar bilan qayd qilib borilgan. Jumladan, uning ilk bor oyoq bosib, qadam tashlashi, tili chiqishi, tishi chiqishi kabilar. Xalq orasida bolalar hayoti bilan bog‘liq “Soch to‘yi”, “Tish to‘yi”, “Oyoq to‘yi” kabilar bu o‘zgarishlarni bevosita qayd etishga qaratilgan bo‘lib,³¹ ayni paytda, har biri o‘ziga xos aytim-olqishlar bilan ham ziynatlangan. “Alpomish” dostonida ularga ishora Yodgor obrazi misolida keltirilgan “Yodgor ham yo‘l yurganday bo‘p qoladi”, “Tili yangi chiqqan, Yodgor boladi(r)” satrlarida ko‘rinadi.

³¹ Исмоилов Х. Ўзбек тўйлари. – Тошкент: Ўзбекистон, 1992. – Б.34-37.

Dissertatsiyaning “Alpomish” dostonida nikoh to‘yi urf-odatlarining badiiy tasviri” deb nomlangan uchinchi bobi ham uch fasldan iborat. Ilk fasl “Dostonda sovchilik udumlari ifodasi” deb atalgan. Jamiyat taraqqiyoti hamda insonlar turmush tarzining o‘zgarishi bilan nikoh to‘yi va u bilan bog‘liq urf-odat, rasm-rusum va an’analar, marosimlar ham o‘zgarib, mazmunan yangilanib, zamona talablariga moslashib borgan. Bu holatni aniqroq tasavvur etish uchun “Alpomish” dostonida tasvirlangan qadimiy nikoh to‘yi bilan hozirgi nikoh to‘yi an’analarini o‘zaro qiyoslash kifoya. O‘zbek nikoh to‘ylari uch bosqichda o‘tkaziladi. Bular: 1. Nikoh to‘yigacha bo‘ladigan urf-odatlar. 2. Nikoh to‘yi vaqtida o‘tkaziladigan marosimlar. 3. Nikoh to‘yidan keyin o‘tkaziladigan marosimlar.

An’anaga ko‘ra, tanlangan qiz xonadoniga ayollar borib “og‘iz iscash” qilishgan. Xalq orasida bunday sovchilik “makiyon sovchi” nomi bilan yuritilgan.³² “Og‘iz iscash” jarayonida qizning “boshi bo‘shmi” yoki “boshi bog‘liqmi” ekanligi surishtirilgan. “Og‘iz iscash” nomi bilan yuritiluvchi sovchilikning dastlabki bosqichi “Alpomish” dostonida ham tasvirlangan. Unda yetti qalmoqning onasi Surxayil Qorajon uchun Barchin yashaydigan xonadonga “og‘iz iscash” maqsadida tashrif buyuradi. Barchinning onasi sovchilarni taomil bo‘yicha hurmat bilan kutib oladi va qizining boshi bog‘liqligini aytadi. Shunday bo‘lsa-da, sovchilarni osh suzib, mehmon qiladi. Sovchilar esa o‘zini odobli tutmaydi. Bu tasvir sovchilikka har kimni ham uzatib bo‘lmasligini ko‘rsatadi.

Kuyov tomon, odatda, sovchilikdan qaytganlarni “Bo‘rimi, tulki?” deya kutib olishi an’anaga aylangan. Ana shu azaliy odat ham “Alpomish” dostonida o‘z talqinini topgan. Jumladan, sovchilikka ketgan onasi Murodtepada kutib turgan Qorajonga: Bolam, men borgan yerda ham tulki bo‘lamanmi, bo‘ri bo‘lib kelayotibman, seni uylantirib, bu ko‘ylaklarni quda-andalikka kiyib kelayotibman” deydi. Sovchilik udumlarimiz bo‘yicha agar qiz tomon qudalashishga rozi bo‘lsa, kelgan sovchilarga zo‘r ziyofat berish barobarida qimmatbaho sarpolar ham kiydirib jo‘natadi. Lekin, Surxayil kampirni it talab, egnidagi kiyimlarini yirtgani uchun unga yangi kiyimlar kiydirilgan edi.

Odatda, sovchilar sovchilik jarayonini oqizmay-tomizmay gapirib berishadi. Shu voqelik ham “Alpomish” dostoni syujetidan o‘rin olgan. Bunga “Qilgan ishidan bildirib, kampir Qorajonga qarab, bir so‘z deyapti” satri ishora qiladi.

Dostondagi “sovchilardan ularga javob aytilish uchun ma‘lum bir muddat vaqt so‘rash”, qarindoshlar “maslahat qilish”i motivi ham hayotiy asosga ega.

Ko‘p joylarda sovchilikka erkaklar boradi. Bu voqelik talqini “Alpomish” dostonida Qorajonning Hakimbek uchun sovchi bo‘lib borishi motivi misolida o‘z ifodasini topgan. Erkak sovchilar, odatda, biror ulov minib kelishgan. Ular dastlab xonadon erkagini, ya‘ni qizning otasini so‘ragan. Shunga ko‘ra, dostonda sovchi Qorajonning atayin Boychiborni minib kelishiga, otning uzangiga oyog‘ini tiragancha, uyga qarab, Boysarini so‘rashiga alohida e‘tibor qaratilgan. Ayniqsa,

³² Худойкулова Л. Сурхон воҳаси совчилик қўшиқлари ва айтимлари / Ўзбек фольклоршунослиги масалалари. Таникли фольклоршунос олим, профессор О.Сафаров таваллудининг 70 йиллигига бағишланган илмий мақолалар тўплами. 2-китоб. – Тошкент: Фан, 2010. – Б.155-164.

bunda Qorajon tomonidan aytilgan misralar sovchilikning o'ziga xos aytim-qo'shiqlari ham bo'lganidan dalolat beradi.

